

O‘QUVCHI-YOSHLARNI IJODIY FIKRLASHGA O‘RGATISH

Ahmedova Difuza Mahammadovna

Farg‘ona davlat universiteti

Ekologiya va artof-muhit muhofazasi kafedrası

dotsenti, biologiya fanlari nomzodi.

Sufiyeva Sarvinov Abdumalik qizi

Teshajonov Shohruxbek Umidjon o‘g‘li

Ekologiya va artof-muhit muhofazasi yo‘nalishi 3-bosqich talabalari

Ma‘lumki, hozirgi kunda ma‘lum bir xududdagina emas, balki dunyo miqiyosida ekologik muammolarni oldini olish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, ekologik muvozanatni saqlash dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ekologik vaziyatni yaxshilash, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish, uni asrab-avaylash borasida ekologik bilim, ekologik ong va ekologik madaniyat muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan o‘quvchi-yoshlarga ekologik bilim berishda zamonaviy uslublardan keng va samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Quyida «Ekologik muammolar» mavzusini «Panorama» treningi asosida o‘tkazilishi namuna sifatida beriladi.

Ushbu treningning maqsadi aniq bir muammoni yakka yoki kichik guruhda fikr yuritib hal etish, yechimini topish, fikrlarni tanlash, umumlashtirish, muammo yuzasidan aniq bir tushuncha hosil qilish, faol, ijodiy fikrlashga, yangi g‘oyalar orqali muammoni yechimini izlashga o‘rgatishdan iboratdir.

O‘qituvchi mashg‘ulotni insonning tabiat bilan o‘zaro munosabati, fan-texnika taraqqiyoti, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, sanoat korxonalarining rivojlanishi, avtotransportlar sonini kundan-kunga ortib borayotganligi haqidagi ma‘lumot bilan boshlaydi. O‘qituvchi mashg‘ulotning asosiy mavzusi bo‘yicha yo‘naltiruvchi so‘zida yuzaga kelayotgan ekologik muammolarning kelib chiqishini oldini olishda har bir jamiyat a‘zolari ongiga ekologik ong, madaniyat, axloq tushunchalarini kiritish, mashg‘ulot mazmunini «Ekologik muammolar» mavzusi orqali yoritish mumkinligini tushuntiradi.

O‘qituvchi kirish so‘zidan so‘ng, o‘quvchi-yoshlarni soniga qarab 3-5 kishidan iborat 4 yoki 5 ta kichik guruhga ajratadi. So‘ngra o‘quvchilarga mashg‘ulotning maqsadi va o‘tkazish tartibini tushuntiradi. Har bir kichik guruhga avvaldan tayyorlangan tarqatma materiallarni tarqatadi va kichik guruh a‘zolarini tarqatma materialda berilgan jadvalda yozilgan asosiy fikr «Ekologik muammolar» mavzusiga kiritilgan muammolar bilan tanishib chiqish va ulardan bittasini tanlashni talab etadi. Tanlagan mavzulari bo‘yicha o‘z fikr mulohazalarini yozma bayon qilishlari uchun vaqtni belgilaydi. Topshiriq bajarilgandan so‘ng, guruhlardagi tarqatma materiallarni almashtiradi ya‘ni 1-guruh materiali 2-guruhga, 2-guruh materiali 3-guruhga, 3-guruh materiali 4-guruhga, 4-guruh materiali 1-guruhga beradi va vaqtni belgilaydi. Guruh a‘zolari tarqatmadagi yechilmay qolgan muammolar ustida ishlaydi. Tarqatma material o‘z guruhlariga qaytgach, guruh a‘zolari tarqatma

15-Oktyabr, 2025-yil

materialdagi barcha fikrlarni diqqat bilan o‘qib, uni umumlashtirgan holda umumiy fikrga keladi va taqdimot qiladi. O‘qituvchi taqdimot uchun vaqtni belgilaydi va tartibli o‘tkazilishini ta‘minlaydi.

Taqdimot tugagach, o‘qituvchi «Ekologik muammolar» mavzusi bo‘yicha fikrlarni umumlashtiradi, ularning isboti sifatida videomaterial (imkoniyati bo‘lsa) yoki fotosuratlar ko‘rsatishi mumkin. O‘qituvchi mashg‘ulotni o‘quvchi-yoshlarning bildirgan fikrlari asosida mavzuning kasbiy faoliyatidagi ahamiyatiga e‘tiborini qaratadi,

«Ekologik muammolar» mavzusidagi «Panorama» treningi uchun mo‘ljallangan tarqatma materialning taxminiy nusxasi quyida keltirilgan.

1-jadval

Muammolar	Yuzag a kelish sabablari	Salbiy oqibatlari	Hal etish yo‘llari	Shaxsan men nima qilishim mumkin
Global				
Iqlimning o‘zgarishi				
Ozon omili				
Orol muammosi				
Regional				
Suv resurslaridan foydalanishning regional muammolari				
Atrof muhitning chegaralararo ifloslanishi				
Infektsion va boshqa o‘ta xavfli kasalliklarning tarqalishi				
Milliy				
Suv resurslarining yetishmovchiligi va ifloslanganligi				
Bioxilma-xillikni kamayishi				
Aholi salomatligining yomonlashuvi				
Mahalliy				
Alohida hududlarning radiatsion ifloslanishi				
Yer osti suvlarining ifloslanishi				
Chiqindilar muammosi				

Demak, shuni ta‘kidlash kerakki, zamonaviy ta‘lim talablaridan kelib chiqib darslarda qo‘llaniladigan «Panorama» treningi, o‘quvchilarni o‘quv mashg‘ulotlariga bolgan qiziqishini ortirib, jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga erishiladi. Darhaqiqat, jamiyatimizni barqaror rivojlanishi uchun ta‘lim jarayonida o‘quvchi-yoshlarni intellektual qobiliyatlarini oshirish, mustaqil, faol, ijodiy fikrlashga yo‘naltirishni keng joriy etilishi zamon talablariga mos keladi.

15-Oktyabr, 2025-yil

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.G‘afforov Ya.X. Mahsus fanlarni o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari. O‘quv qo‘llanma.- T.: 2021,156 b.

2.Ahmedova D.M., Mamajonov Sh., Davidov M. Uzluksiz ta’limda o‘quvchi yoshlarga ekologik ta’lim-tarbiya berish usullari. //O‘quv uslubiy qo‘llanma –Farg‘ona, 2017-110 b

3.Yunusov M., Ahmedova D.M. Ekologiya fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar. // O‘quv uslubiy qo‘llanma- Farg‘ona, 2021-158 b

